

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'oz.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

Aniq va tabiiy fanlar

MATEMATIKA

A.Urinov, D.Usmonov

Soxa chegarasida buziladigan parabolik tenglama uchun chegaraviy masalalar 6

Z.YusupovaImkoniyati cheklangan bolalar maktabining matematika darslarida o'quvchilar yo'l
qo'yadigan tipik xatoliklar va ularni bartaraf etish yo'llari 19FIZIKA - TEXNIKA**M.Mirxolisov, X.Yunusov, A.Sarimsoqov**

Natriy-karboksimetilsellyuloza eritmasida barqaror rux oksidi nanozarralari sintezi va xossalari 24

BIOLOGIY, TUPROQSHUNOSLIK**I.Zokirov, Sh.Yusupova, A.Yoqubov**

Markaziy Farg'ona sabzavot-poliz agrotsenozlari entomofaglarining ekologik-faunistik tahlili 32

F.Xolboyev, F.Shodiyeva, Z.MirxonovaO'zbekistonda kurkunaklar (Merops) avlodining oziqa tarkibi va oshqozon
massasining o'zgaruvchanligi 38**G.Zokirova, Sh.Kamolov**Farg'ona vodiysi sharoitida oltinko'z (Chrysopidae: Chrysoperla) entomofagining
biologik xususiyatlari 43**F.Umurqulova, M.Ismoilova, B.Zokirov, Sh.Hasanov, J.Abduraxmanov**

Chimqo'rg'on va pachkamar suv omborlarining mikroflorasini tadqiq qilish 47

QISHLOQ HO'JALIGI**G'.Yuldashev, M.Isag'aliyev, A.Raximov, Z.Azimov**

Sho'rlangan tuproqlar pedogeokimyosi va tadqiqot usullari 50

M.Raximov, X.MuydinovXorijdan keltirilgan qoramollar buqachalari ratsioniga mineral qo'shimchalar
kiritilishi samaradorligi 56KIMYO**A.Maxsumov, A.Shodiyev, U.Azamatov, Y.Xolboyev**

Bis-[(2,4,6-tribrom-fenoksi)-karbamat] hosilasini sintezi va uning xossalari 60

X.Saminov, A.Ibragimov, O.Nazarov*Punica granatum* o'simligi "qayum" navining kimyoviy elementlar tarkibini aniqlash 65**I.Asqarov, M.Khamdamova, Y.Xolboyev**

Makkajo'xori kepagi asosida tayyorlanadigan bioparchalanuvchan idishlar kimyoviy tarkibi 70

I.Asqarov, N.Razzakov

Zirk mevasi tarkibidagi tabiiy birikmalarning immunostimulyatorlik xossalari 75

X.Abdikunduzov, A.Ibragimov, O.Nazarov, I.Jalolov, E.AkbarovUzum (*Vitis vinifera*) o'simligi pinot noir navining bargi tarkibidagi flavonoidlarni
sifat va miqdor tarkibini aniqlash 78**I.Askarov, M.Muminjanov, N.Atakulova**

Tarvuz mevasining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari 82

I.Asqarov, O.AbdulloevO'zbekistonda o'sadigan bir yillik shuvoq o'simligidan (*Artemisia annua L.*) artemizininni ajratib
olishning takomillashtirilgan usuli 86**M.Bokiyev, I.Asqarov**

Yerqalampirning kimyoviy tarkibi va undan ayrim xastaliklarni davolashda foydalanish 90

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

IQTISODIYOT

G. Xalmatjanova, A.G'ofurov

O'zbekistonda yer resurslaridan foydalanish usullari va samaradorligi 96

FALSAFA, SIYOSAT**B.Xolmatova**

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish masalalarining innovatsion yechimlari 101

S.AbdunazarovMa'naviy-mafkuraviy mexanizmlarni amaliyotga joriy etishda kompleks
yondashuvning ahamiyati 106

XOTIN-QIZLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH MASALALARINING INNOVATSION YECHIMLARI

INNOVATIVE SOLUTIONS OF SOCIAL PROTECTION OF WOMEN

ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН

Xolmatova Bashoratxon Tolipovna¹¹Xolmatova Bashoratxon Tolipovna

– Farg'ona davlat universiteti falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya

Mazkur maqola xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari, muammoning mahalliy, milliy va hududiy jihatlariga alohida e'tibor qaratishning o'ta dolzarbligi, uni davlatimizning ustuvor siyosat darajasiga ko'tarilgani, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning butunlay yangi, innovatsion modelini yaratish masalalariga bag'ishlangan.

Аннотация

Данная статья посвящена специфике социальной защиты женщин, актуальности уделения особого внимания местным, общегосударственным и региональным аспектам проблемы, поднятию ее на уровень приоритетной политики нашего государства, созданию совершенно новой, инновационной модель социальной защиты женщин.

Abstract

This article is devoted to the issues of creating a completely new, innovative model of social protection of women, which is characterized by the peculiarities of social protection of women, the extreme urgency of paying special attention to local, national and regional aspects of the problem, raising it to the level of priority policy of our state.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Harakatlar strategiyasi, fuqarolik jamiyati, innovatsion model, xotin-qizlarning masalasi, ijtimoiy himoya.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Стратегия действий, гражданское общество, инновационная модель, проблемы женщин, социальная защита.

Keywords: New Uzbekistan, Action Strategy, Civil society, innovative model, women's issues.

KIRISH

Yangilanayotgan O'zbekistonda xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish, manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat, iste'dod va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, bir so'z bilan aytganda, ularni jamiyatning teng huquqli, faol va bunyodkor a'zosiga aylantirish borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmogda. Jumladan, prezidentimiz SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Ayolni e'zozlash – ezgulik va adolat mezonı", degan g'oyani hayotga tatbiq etish maqsadida aholimizning qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, iste'dodi va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, onalik va bolalikni himoya qilish davlat siyosatining markaziga qo'yildi[1,53].

Yangilanayotgan vatanimizda ayolni ulug'lash, uni ijtimoiy muhofaza qilish, jamiyatdagi nufuzini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlar va ular asosida olib borilayotgan islohotlar xotin-qizlarni samarali ijtimoiy himoya qilish va faollashtirishning innovatsion modeli sifatida talqin etish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolar, xususan, xotin-qizlarni og'ir ijtimoiy ahvoldan chiqarish, ularning bandligini ta'minlash, mamlakatda gender tenglikni ta'minlash, xotin qizlarni taziyoq va zo'ravonlikdan himoya qilish, oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olish, oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash masalalarini sotsiologik tadqiq etish ustuvor vazifalardan biri bo'lib, dunyo ilmiy hamjamiyati tomonidan o'rganilmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida xotin-qizlarga munosabat va ularni ijtimoiy himoya qilish masalasi tubdan o'zgardı. Bu o'zgarishlar xotin-qizlar muammolariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarida ham o'z aksini topmoqda. Xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligi va mavqeini yuksaltirish bilan bog'liq, shuningdek, ular faoliyatining ijtimoiy-falsafiy, sotsiologik jihatları N.R. Annayeva, M.X. Ganiyeva, M.Q.G'afforova, N.M. Latipova, N.M. Muravyeva, N.R. Nishonova va boshqa shu kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan[6;7;8;9;10;11].

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Xotin-qizlar jamiyatning mamlakatda va oilada ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy qadriyatlarining mustahkamligi, tarbiyaviy muhit uzluksizligini ta'minlovchi faol a'zolaridir. Hozirgi kunda mamlakatimizda 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidan kelib chiqib, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda[4]. Shuningdek, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yanada oshirish, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash borasida keng ko'lamli faoliyat amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 2020 yil 5 iyun kuni Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida Marg'ilon hunarmandlik markazida mehnat qilayotgan xotin-qizlar bilan uchrashuvda: "Mening eng katta islohotim – har bir oilaning nuri bo'lgan, onalarni, xotin-qizlarni rozi qilish. Ayollarni qancha rozi qilsak, Yaratgan bizga shuncha kuch-qudrat, yurtimizga tinchlik, osoyishtalik beradi", – deb, yurtimizda xotin-qizlarga bo'lgan munosabat masalasi naqadar dolzarb mohiyat kasb etayotganligini alohida ta'kidladilar[13].

Binobarin, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti xotin-qizlarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tiborga bog'liq.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni chuqur tahlil qilish ayollarni ijtimoiy himoya qilishga innovatsion yondashuvni yo'lga qo'yish uchun mohiyat e'tiboriga ko'ra, butunlay yangi tizimni yaratishga bo'lgan zaruriy ehtiyojni yuzaga keltirdi. Tizimda mavjud bo'lgan kamchiliklar o'rganilib, ularni bartaraf etish choralari ko'rildi. Mavjud tizim kamchiliklarini bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishda mamlakatimizda boshlangan xalq bilan muloqot siyosati alohida ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, xalq bilan ochiq, yuzma-yuz muloqotni tashkil etish, har bir fuqaroning muammosini aniqlash va ushbu muammolarni manzilli bartaraf etishda eng asosiy omildir[2.44].

So'nggi uch yil mobaynida amalga oshirilgan konkret sotsiologik tadqiqot natijalari jarayonni tizimli tadqiq qilish uchun, hayotda o'zining munosib o'rnini topa olmagan, og'ir ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy tanazzul holatiga tushib qolgan xotin-qizlarning muammolariga qarab toifalarini aniqlab olish zaruratini yuzaga keltirdi. Xonadonma-xonadon yurib, xotin-qizlarning muammolari manzilli o'rganilishi "kam ta'minlangan" degan ibora mazmunini ham teranroq anglash va unday toifadagilarni quyidagicha tasniflab yondashish zarurligini kun tartibiga chiqardi: Xususan,

- kam ta'minlangan moddiy, psixologik, tibbiy, ijtimoiy yordamga muhtoj xotin-qizlar;
- kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan yolg'iz ayollar;
- kam ta'minlangan, yolg'iz yashaydigan nogiron xotin-qizlar;
- kam ta'minlangan, turmushdan ajrashgan, farzandlarini yolg'iz tarbiyalaydigan ayollar;
- kam ta'minlangan, uy-joylari ta'mirga muhtoj, yoki uy-joysiz ayollar;
- kam ta'minlangan ishsiz ayollar;
- migratsiyaning salbiy oqibatlari natijasida og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan ayollar;
- jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan xotin-qizlar;
- taziyoq va zo'ravonlikka uchragan, oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar.

Yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy sharoitlarda yashayotgan, shu jumladan, nogiron ayollar, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan onalarning yashash sharoitlarini yaxshilashning aniq mexanizmi yaratildi.

Bugungi kunda «aholining barcha toifalari bilan doimiy muloqotda bo'lish, fuqarolarning qonuniy talab va ehtiyojlarini nafaqat o'rnatish, balki ularni ta'minlashdan iborat»[3.14].

Ayni paytda yurtimizdagi har bir mahallada fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan oilalarning ahvoli o'rganilib, ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, yordamga muhtoj har bir oila fuqarolar yig'inida alohida ishlab chiqilgan "Yo'l xaritalari" orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari mazkur muammoning mahalliy, milliy va hududiy jihatlariga alohida e'tibor qaratishning o'ta dolzarbligi uni davlatimizning ustuvor siyosat darajasiga ko'tarilgani bilan izohlanadi. Xotin-qizlar muammolarining yechimlari bo'yicha davlat siyosatining faol namoyon bo'lish jabhalari quyidagilardir:

- ayollarning jamiyatda munosib hayot va turmush tarziga ega qilish;
- xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faolligini oshirish;
- xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;
- og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni himoya qilish;
- xotin-qizlar bandligini ta'minlash;

FALSAFA-SIYOSAT

- xotin-qizlar jinoyatchiligining oldini olish;
- gender tengligini ta'minlash;
- oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash;
- onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida mamlakatimiz butunlay yangi bosqichga qadam

qo'yganligi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bu tushunchaga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish – mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning eng ustuvor yo'nalishi sifatida milliy, madaniy o'ziga xosliklarni umumgumanitar tamoyillar asosida hisobga oladigan ijtimoiy himoya qilish tizimi bo'lib, davlat va jamiyat ijtimoiy hamkorligida xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni himoya qilish, bandligini ta'minlash, ular o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olish, gender tenglikni ta'minlash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish jarayonidir.

Yangi O'zbekiston muhitida xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish harakatining mohiyatan yangi bosqichga ko'tarilganligi, ushbu masalaga innovatsion yondashuvni qo'llash bugungi hayotimizning ijtimoiy zarurati, deyish mumkin. Chunki jamiyatning progressiv taraqqiyoti yangilanish va islohotlarsiz, xususan innovatsion yondashuvlarsiz amalga oshmaydi. Ushbu holatni jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyati, deya izohlash mumkin.

Agar jamiyatda yuz berayotgan innovatsion jarayonlarni yanada chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, jadal taraqqiyot maqsadlarini ichki va tashqi imkoniyatlarni uyg'un tarzda ishga solish hisobiga amalga oshishi mumkinligining guvohi bo'lamiz. Bizning mamlakatimizda ushbu jarayon, xalqimizning milliy mentalitet xususiyatlarini ham alohida e'tiborga olgan holda, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini qo'llash hisobiga amalga oshirilmoqda. Bu esa, O'zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuvining kuchayishiga, xalqaro miqyosda obro'-e'tiborining oshib borishiga imkoniyat yaratmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antonio Guterrish O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yo'llagan murojaatnomasida Harakatlar strategiyasi BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari va 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi bilan ko'p jihatdan hamohang ekani hamda BMT va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish uchun asos bo'lishi mumkinligini ta'kidladi[12.6].

Davlat tuzilmalarining xotin-qizlar hayotini yaxshilash va innovatsion isloh etish borasidagi faoliyati quyidagilardan iborat:

a) ayollarning munosib hayotini ta'minlash borasidagi innovatsion jarayonlarning strategiyasi, o'rta va yaqin muddatlardagi rejalarini yaratish, umumxalq muhokamasidan o'tkazish va taqdim etilgan taklif va tavsiyalar asosida dasturlar ishlab chiqish;

b) xotin-qizlar masalasiga innovatsion yondashuvning davlat va jamiyatning barcha sohalari bilan uyg'un tarzda kechishini muvofiqlashtirish;

v) innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatish kuchi va salohiyatiga ega bo'lgan lider shaxslar, hududlardagi obro'-e'tiborli insonlar, kuchli mutaxassislar, mahalla kayvonilari, bir so'z bilan aytganda, o'zgarishlar su'ektlarining faoliyatini rag'batlantirish va ularni maqsadli yo'naltirish;

g) xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini jamiyat tarakkiyotining globallashuv, integratsiya, axborotlashuv, shu bilan birga, innovatsiya kontekstida amalga oshirishga mas'ul bo'lish;

d) aholining, xususan, xotin-qizlarning dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, bandligini ta'minlash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, tadbirkorlik harakatini rag'batlantirish.

Ta'lim-tarbiya masalasi ko'p yillar davomida yechimini kutayotgan og'ir muammolardan biri bo'lib, bu oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalarining cheklangani bilan bog'liq edi. Masalan, 2–3 yil avval oliy ta'lim muassasalariga qabul darajasi yiliga 60–70 ming kishini, boshqacha aytganda, maktab bitiruvchilarining atigi 9 foizini tashkil etar edi.

Bu sohada ham jiddiy islohotlar boshlandi, o'tgan yili tariximizda birinchi marta 150 ming nafar yoshlarimiz talabalikka qabul qilindi. Shu tariqa maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 20 foizga yetkazildi. Islohotlar natijasida oliy ta'limga qamrov ko'rsatkichi joriy yilda kamida 25 foizga yetgan bo'lsa, kelgusida esa 50 – 60 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, Davlat dasturining 169-bandida: xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, belgilangani, qizlar uchun oliy o'quv yurtlariga alohida qabul kvotalari joriy etilishi birinchi marta qo'llanayotgan tajriba sifatida yosh qizlarni ijtimoiy himoya qilish borasida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

Bu borada xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida alohida ajratiladigan grantlar uchun tanlovda ishtirok etadigan nomzodlarni tanlash va saralash mezonlari ishlab chiqilgan hukumat qarori davlatimiz rahbari g'oyalarini hayotga joriy etishdagi muhim qadam bo'ldi.

Ijtimoiy muhtoj oilalardan chiqqan xotin-qizlar uchun ajratiladigan grantlar xotin-qizlarga imtiyoz beruvchi yagona hujjat mahallalardan beriladigan tavsianomalar bo'ladi. Bu tavsianomalar mahalla fuqarolari yig'inidan olingandan so'ng xotin-qizlar u asosida tanlovda ishtirok etish imkoniga ega bo'ladilar. 4 foizlik qo'shimcha grant asosida qabul qilinuvchi xotin-qizlar toifasiga mahalla tomonidan kam ta'minlangan deb topilgan oilalar farzandi, nogironligi bo'lgan xotin-qizlar, otasi yoki onasidan yetim qolgan shaxslar kabi 6ta yo'nalishdagi fuqarolar kiritilgan.

Davlat rahbarining 2020 yil 24 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ham grant asosida o'qitishda qizlar uchun alohida qo'shimcha imtiyozlar yaratish va mutasaddi tashkilotlar oldiga bu borada nomzodlar tayyorlash tizimini yaratish vazifasi qo'yildi. "Qizlarimiz uchun alohida grantlar ham ajratiladi. Xotin-qizlar qo'mitasi ushbu grantlar asosida o'qitishga nomzodlarni tanlash va saralash mezonlarini ishlab chiqishi kerak"[5]. Mezonlarni ishlab chiqishda Murojaatnomada aytilgan quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

2019 yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, oliy ta'lim sohasida ham xotin-qizlar soni oshgan va talabalarning 40% xotin-qizlar bo'lgan, bu 2011 yildagi ko'rsatkichdan 36% ko'p demakdir. Xotin-qizlarning savodxonlik darajasi esa 99,98%ni, ya'ni dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan birini tashkil etadi.

Shunga qaramay, ma'lumotlarga ko'ra, ayni vaqtda o'rta ta'lim olgan xotin-qizlarning faqat 35% ishlaydi, oliy ma'lumotli xotin-qizlarning esa, 68% ish bilan ta'minlangan.

Ma'lumki, oliy ta'lim olish imkoniyatlarining kengaytirilishi ayollar orasida ish bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishda muhim omil. Shuningdek, biz siyosat va ijro hokimiyati boshqaruvida ham ayollar soni va nufuzini oshirishga chaqirishdan to'xtamasligimiz kerak, chunki, xotin-qizlar ma'lumoti va intellektual salohiyatining yuqori bo'lishi pirovard natijada umummilliy yuksalish, yangi sivilizatsion jarayonlarning boshlanishiga kuchli turtki berishi insoniyat tarixiy tajribasidan ma'lumdir.

XULOSA

Yangi O'zbekistonda ayollarni ijtimoiy himoya qilish ularning ijtimoiy faollashuvi jarayonlari bilan uzviy ravishda hayotga joriy etilayotgan innovatsion model asosida kechayotganligi davrimizning muhim xususiyatidir. Shuningdek, fuqarolik jamiyati – innovatsiyalar rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muhit hamdir. Shu jihatdan olib qaraganda, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning butunlay yangi, innovatsion modelini yaratish ham mamlakatda olib borilayotgan chuqur islohotlarning zaruriy ob'ektiv jarayoni sifatida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimining ustuvor yo'nalishlari belgilanib, har yili bu yo'nalishlarning aniq dastur doirasida amalga oshiriladigan vazifalar sifatida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlanadigan eng muhim masalalari qatoriga kiritilishi ham ushbu tizimda joriy qilingan yana bir innovatsion yondashuvning ifodasidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 53. (Mirziyoyev Sh.M. New Uzbekistan Strategy. - Tashkent: Uzbekistan, 2021)

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent.: O'zbekiston, 2017. – B.44. (Mirziyoyev Sh.M. We will build our great future together with our brave and noble people. – Tashkent)

3. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent.: O'zbekiston NMIU, 2017. – B.14. (Mirziyoyev SH.M. Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan. - Tashkent.: NMIU of Uzbekistan, 2017)

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni. –Toshkent: "Adolat", 2018. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 of February 7, 2017 "On the Action Strategy for further development of the Republic of Uzbekistan")

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. / <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-25-01-2020>. (Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan on January 24, 2020.)

6. Annaeyva N.R. Ayollar tadbirkorligining genezisi, nazariyasi va amaliyoti (O'zbekiston misolida). Falsafa fan.bo'yicha fals.dokt (PhD) dis.avtoref. – Toshkent, 2018. – 26 b. (Annaeyva N.R. Genesis, theory and practice of women's entrepreneurship (on the example of Uzbekistan). Ph.D. in Ph.D.)

FALSAFA-SIYOSAT

7. G'afforova M.Q. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlar mavqei. Sotsiologiya fan.bo'yicha fals.dokt (PhD) dis.avtoref. –Toshkent: 2018. – 56 b. (G'afforova M.Q. The role of women in the socio-political life of Uzbekistan. Ph.D. in Sociology, Ph.D. – Tashkent)

8. Latipova N.M.O'zbekistonda oila va bolalarni ijtimoiy himoya qilish. Sotsiologiya fan doktori (DSc) dis.avtoref. – Toshkent, 2020. – 58 b. (Latipova NM Social protection of families and children in Uzbekistan. Doctor of Sociology (DSc) dis.author. – Tashkent)

9. Muravyeva N.M. O'zbekiston xotin-qizlari ijtimoiy maqomini yuksaltirish. – Toshkent, 2004. (Muraveva N.M. Raising the social status of women in Uzbekistan)

10. Nishonova N.R. O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlar faoliyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Falsafa fan doktori (DSc) dis.avtoref. – Toshkent, 2019. – 58 b. (Nishonova N.R. Socio-philosophical analysis of women's activities in the public administration system of Uzbekistan. Doctor of Philosophy)Shiddatli islohotlar yili. – Toshkent.: Adolat, 2018. – B.6. (The year of drastic reforms. – Tashkent.

11. <https://kun.uz/news/2020/06/06/SHavkatMirziyoev>: Mening eng katta islohotim - har bir oilaning nuri bo'lgan onalarni, xotin-qizlarni rozi qilish.

12.Ганиева М.Х. Женщины в развитии социологической науки Узбекистана. Материалы международной научно-практической конференции “Вклад в науку ученых женщин государств ТЦентральной Азии”. 20 марта 2020. (2 книга) – С.64-68.

(Taqrizchi: I.Siddiqov – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))